

“TBC Friends” referral dasturni o‘tkazish qoidalari

1. UMUMIY SHARTLAR

- 1.1. “TBC Bank” ATBning mazkur “TBC Friends” referral dastur qoidalari (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi) Bank mijozlarining Dasturda ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 1.2. Mazkur Dastur lotereya emas yoki Dasturdagi ishtiroki bilan bog‘liq Dastur ishtirokchilarining mulkiy xavf-xatarlarga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan, tavakkalchilik asosida o‘ynaladigan o‘yin emas. Dasturni o‘tkazish jarayoni uning ishtirokchilari tomonidan taqdim etadigan hech bir to‘lovlari bilan bog‘liq emas.
- 1.3. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasiga va 369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Mazkur Qoidalar Bankning quyidagi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tbcbank.uz.
- 1.4. Dasturni o‘tkazish muddati: 2026-yil 16-fevraldan – 2026 yil 16 martgacha, shu jumladan.
- 1.5. Dasturni o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 1.6. Dastur “TBC Bank” ATBning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh Shartlarini qabul qilgan Bank Mijozlari uchun taqdim etiladi.

2. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki
Bonus/mukofot	Bank tomonidan Dastur ishtirokchisiga va/yoki taklif qilingan foydalanuvchiga (Do‘stga) Dastur doirasida belgilangan muayyan shartlarni bajarganligi uchun beriladigan rag‘batlantiruvchi to‘lov yoki boshqa shakldagi imtiyoz (pul yoki pulsiz shaklda).
Dastur	“TBC Bank” ATBning “TBC Friends” referral dasturi
Bank mijozi	Bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs
Havola	Taklif etilgan foydalanuvchi bo‘lishiga imkon beruvchi giperhavola. Har bir Taklif qiluvchi ishtirokchiga alohida beriladi.
Promo-kod	Taklif etilgan foydalanuvchi bo‘lishiga imkon beruvchi shaxsiy kod. Har bir taklif etiluvchiga alohida beriladi. Undan faqat Ilovada ro‘yxatdan o‘tish vaqtida foydalanish mumkin.
Dastur ishtirokchisi	Shaxsiy havola yoki promo-kodni yuborish orqali boshqa foydalanuvchilarni taklif qilgan dastur ishtirokchisi
Do‘st/Taklif etilgan	Taklif qiluvchi ishtirokchidan olingan havola yoki promo-koddan foydalanib taklifni qabul qilgan foydalanuvchi
Ilova	TBC UZ mobil ilovasi
“TBC Friends” bo‘limi	Ilovadagi bo‘lim. Dasturda ishtirok etish imkoniyatiga ega foydalanuvchilar uchun mavjud.
Do‘stingiz mahsuloti	Bank mahsulotlari: • Salom Card debet kartasi. Karta www.tbcbank.uz veb-saytida joylashgan Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlar va Karta tariflariga muvofiq chiqariladi va xizmat ko‘rsatiladi; • Salom Visa debet kartasi. Karta www.tbcbank.uz veb-saytida joylashgan Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlar va Karta tariflariga muvofiq chiqariladi va xizmat ko‘rsatiladi; • Osmon card kredit kartasi. Karta www.tbcbank.uz saytida joylashtirilgan Bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etish bo‘yicha Bosh Shartlar va Karta tariflariga muvofiq chiqariladi va xizmat ko‘rsatiladi. • Onlayn mikroqarz. Onlayn mikroqarz olish shartlari www.tbcbank.uz saytida joylashgan onlayn mikroqarz shartnomasi bilan tartibga solinadi; • Milliy valyutadagi muddatli omonat. Mazkur omonat shartlari www.tbcbank.uz saytida joylashgan milliy valyutadagi muddatli omonat shartnomasi bilan tartibga solinadi; • “Odat” omonati. Ushbu omonat shartlari www.tbcbank.uz saytida joylashgan “Odat” omonat shartnomasi bilan tartibga solinadi;

	• Xorijiy valyutadagi muddatli to'ldiriladigan omonat. Ushbu omonat shartlari www.tbcbank.uz saytida joylashgan xorijiy valyutadagi muddatli to'ldiriladigan omonat shartnomasi bilan tartibga solinadi; • TBC PLUS mahsuloti. Ushbu mahsulot shartlari www.tbcbank.uz saytida joylashgan Ofertada tartibga solinadi.
Mukofot to'lash shartlari	Mahsulot – “Salom Visa” debet kartasi: • Dastur ishtirokchisi uchun: Bank Do'st tomonidan quyidagi shartlarni bajarganda 30 000 (o'ttiz ming) so'm miqdorida mukofot to'laydi: Salom Visa debet kartasini taklif qabul qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida muvaffaqiyatli rasmiylashtirish, shuningdek, jismoniy karta yordamida buyurtma berilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida umumiy qiymati 300 000 (uch yuz ming) so'mdan ortiq xaridlarni amalga oshirish. Mukofot Dastur ishtirokchisiga Do'st tomonidan barcha shartlar bajarilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida to'lanadi. • Do'stga: Bank 30 000 (o'ttiz ming) so'm miqdoridagi mukofotni jismoniy karta rasmiylashtirilgan va jismoniy kartadan foydalangan holda kamida 300 000 (uch yuz ming) so'mlik xaridlar amalga oshirilgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida to'laydi. Dastur ishtirokchisi va Do'stga quyidagi hollarda bonuslar berilmaydi: ➤ pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar uchun (hisobvaraqlar, kartalar, Bankning boshqa mijozlari, boshqa banklarning mijozlari o'rtasida); ➤ kreditlar bo'yicha operatsiyalar uchun; ➤ depozitlar bo'yicha operatsiyalar uchun; ➤ pul mablag'lari bilan to'ldirish va ularni yechib olish uchun; ➤ veb/mobil interfeyslar orqali xizmatlarga haq to'lash; ➤ Agar Do'stingizda faollashtirilgan Salom debet kartasi bo'lsa. Mahsulot – Osmon Card kredit kartasi: • Dastur ishtirokchisi va Do'st uchun: Do'st tomonidan quyidagi shartlar bajarilganda Bank har biriga 50 000 (ellik ming) so'm miqdorida mukofot to'laydi: Taklif qabul qilingan sanadan boshlab 30 kalendar kun ichida “Osmon Card” kredit kartasini muvaffaqiyatli rasmiylashtirish, shuningdek, karta rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 30 kalendar kun ichida kamida 500 000 so'mlik tranzaksiyalarni amalga oshirish (ilovada elektrni to'lash yoki do'konda xarid uchun to'lov qilish mumkin, pul o'tkazish va naqd yechish hisobga olinmaydi) Mahsulot – “Onlayn mikroqarz”: • Dastur ishtirokchisi va Do'st uchun: Do'st tomonidan quyidagi shartlar bajarganda, Bank har biriga 100 000 (yuz ming) so'm miqdorida mukofot to'laydi: 3 000 000 so'mdan ortiq onlayn mikroqarzni karta yoki joriy hisob raqamiga muvaffaqiyatli o'tkazish va uni o'tkazilgan sanadan boshlab kamida 30 kun davomida faol kredit maqomini saqlab qolish. Bunda Do'stning bankida so'nggi 90 kun ichida onlayn mikroqarz mavjud bo'lmasligi kerak; Mahsulot – “Milliy valyutadagi muddatli omonat”: • Dastur ishtirokchisi va Do'st uchun: Do'st tomonidan quyidagi shartlar bajarilganda, Bank har biriga 200 000 (ikki yuz ming) so'm miqdorida mukofot to'laydi: Milliy valyutada 10 000 000 so'mdan boshlab muddatli omonatni muvaffaqiyatli ochish. Bunda, (a) oxirgi 90 kun ichida Do'stning Bankda muddatli omonati (Milliy valyutadagi muddatli omonat, xorijiy valyutadagi muddatli to'ldiriladigan omonat) va 1 000 so'mdan ortiq summadagi “Odat” omonati bo'lmasligi kerak va (b) ochiq muddatli omonatga qo'yilgan summa 30 kalendar kun davomida saqlanishi lozim; Mahsulot – “Odat” omonati: • Dastur ishtirokchisi va Do'st uchun: Do'st tomonidan quyidagi shartlar bajarilganda Bank har biriga 50 000 (ellik ming) so'm miqdorida mukofot to'laydi: “Odat” omonatini muvaffaqiyatli ochish va uni ochilgan kuni kamida 5 000 000 (besh million) so'mga to'ldirish. Bunda, (a) oxirgi 90 kalendar kun ichida Bankda Do'stning muddatli omonati (Milliy valyutadagi muddatli omonat, Milliy valyutadagi yoki xorijiy valyutadagi muddatli to'ldiriladigan omonat) va 1000 so'mdan ortiq qoldiqqa ega bo'lgan “Odat” omonati bo'lmasligi kerak va (b) yangi ochilgan “Odat”

omonatida joylashtirilgan 5 000 000 (besh million) so‘m miqdoridagi summa ochilgan sanadan boshlab kamida 30 kalendar kun davomida hisobda saqlanishi lozim.

Mahsulot - Xorijiy valyutadagi muddatli to‘ldiriladigan omonat:

• **Dastur ishtirokchisi va Do‘st uchun:** Do‘st tomonidan quyidagi shartlar bajarilganda Bank har biriga 200 000 (ikki yuz ming) so‘m miqdorida mukofot to‘laydi: Xorijiy valyutada kamida 1000 AQSh dollari miqdoridan kam bo‘lmagan muddatli to‘ldiriladigan omonatni muvaffaqiyatli ochish. Bunda, (a) oxirgi 90 kun ichida Do‘stning Bankda muddatli omonati (Milliy valyutadagi muddatli omonat, Milliy yoki xorijiy valyutadagi muddatli to‘ldiriladigan omonat) va 1000 so‘mdan ortiq qoldiqqa ega bo‘lgan “Odat” omonati bo‘lmashligi kerak va (b) ochiq muddatli to‘ldiriladigan omonatda joylashtirilgan 1000 AQSh dollari miqdoridagi summa ochilgan sanadan boshlab kamida 30 kalendar kun davomida saqlanishi lozim.

Mahsulot - TBC Plus:

- Dastur ishtirokchisi va Do‘st uchun: Do‘st tomonidan quyidagi shartlar bajarilganda Bank har biriga 10 000 (o‘n ming) so‘m miqdorida mukofot to‘laydi: Do‘st referral kod (havola) olingan kundan boshlab 30 kun ichida TBC Plus obunasini faollashtirishi lozim.
- Taklif etilgan shaxs(Do‘st) ilgari TBC Plus obunasini rasmiylashtirmagan bo‘lishi kerak.

* Hisobga o‘tkazilgan onlayn qarzni u hisobga o‘tkazilgan sanadan boshlab 30 kalendar kun ichida muddatidan oldin to‘lash ishtirokchining har qanday sovrinlarni olish huquqini bekor qilishiga olib keladi.

3. DASTUR TASHKILOTCHISI

- 3.1. Dastur tashkilotchisi “TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki.
- 3.2. Bank manzili: 100015, O‘zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10-B uy.

4. DASTURDA ISHTIROK ETISH TARTIBI

- 4.1. Dasturda ishtirok etish uchun Mijoz ushbu Qoidalarining 1.6-bandida belgilangan shartlarni bajarishi lozim.
- 4.2. Ishtirokchilar “TBC Friends” bo‘limiga kirib foydalanishi mumkin.
- 4.3. “TBC Friends” bo‘limida Ishtirokchi o‘zining shaxsiy promo-kodidan nusxa ko‘chirib yuborish, shuningdek, taklif qilish uchun individual havolani ulashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
- 4.4. Promo-koddan (ro‘yxatdan o‘tgandan keyin 24 soat ichida kiritilgan) foydalanadigan yoki individual havola orqali o‘tadigan foydalanuvchilar Dasturga Do‘st sifatida qo‘shilishlari mumkin.
- 4.5. Mukofotni olish uchun Ishtirokchi va Do‘st TBC UZ ilovasida identifikatsiya/verifikatsiyadan o‘tishi, shuningdek, ushbu Qoidalarining 2-bo‘limida nazarda tutilgan shartlarni bajarishi lozim.
- 4.6. Taklif etilgan foydalanuvchilar (Do‘stlar) soni:
 - 4.6.1. Salom Card debet kartasi Mahsuloti doirasida taklif etilgan foydalanuvchilar soniga cheklovlar ko‘zda tutilmagan, bunda mukofot faqat Dastur shartlarini muvaffaqiyatli bajargan dastlabki 5 (besh) nafar taklif etilgan foydalanuvchilar (Do‘stlar) uchun to‘lanadi.
 - 4.6.2. “Salom Visa debet kartasi” Mahsuloti doirasida Dastur ishtirokchisi tomonidan taklif etilgan foydalanuvchilar soniga cheklovlar ko‘zda tutilmagan. Bank Dastur muddati tugagunga qadar “Salom Visa” Debet kartasi mahsuloti bo‘yicha aksiyani yakunlash huquqiga ega.
 - 4.6.3. Osmon Card kredit kartasi mahsuloti doirasida taklif qilingan foydalanuvchilar soniga cheklov belgilanmagan. Biroq, mukofot faqat Dastur shartlarini muvaffaqiyatli bajargan dastlabki 5 (besh) nafar taklif etilgan foydalanuvchilar (Do‘stlar) uchun to‘lanadi.
 - 4.6.4. “Onlayn mikroqarz” mahsuloti bo‘yicha ham taklif qilinganlar soni bo‘yicha cheklovlar mavjud emas. Mukofot Dastur shartlarini bajargan dastlabki 10 (o‘n) ta Do‘st uchun hisoblanadi.
 - 4.6.5. “Milliy valyutadagi muddatli omonat”, “Xorijiy valyutadagi muddatli to‘ldiriladigan omonat” va “Odat” omonati doirasida taklif etilgan foydalanuvchilar (Do‘stlar) soniga cheklovlar mavjud emas. Mukofot faqat Dastur shartlarini bajargan dastlabki 10 (o‘n) nafar taklif qilingan foydalanuvchilar uchun hisoblanadi.
 - 4.6.6. TBC Plus Mahsuloti doirasida Dastur ishtirokchisi tomonidan taklif etilgan foydalanuvchilar soniga cheklovlar ko‘zda tutilmagan. Mukofot Dastur shartlarini bajargan dastlabki 10 (o‘n) ta Do‘st uchun hisoblanadi.
- 4.7. Bank xodimlari va vakillari, affilangan shaxslar va ularning oila a‘zolari Dasturda ishtirok etishga ruxsat etilmaydi.
- 4.8. Ushbu Dastur doirasida Taklif qilingan foydalanuvchining ayrim ma‘lumotlari (shaxsga doir ma‘lumotlarni ko‘rsatmasdan) mukofotlash tartibining shaffofligi uchun Taklif qiluvchi ishtirokchiga ko‘rsatilishi mumkin.

5. MUKOFOTLASH TARTIBI VA SHARTLARI

- 5.1. Mukofot ushbu Dasturda nazarda tutilgan barcha shartlar bajarilgan vaqtdan boshlab 10 (o'n) bank kunidan kechiktirmay tegishli Dastur ishtirokchisi yoki taklif etilgan Do'stning joriy yoki karta hisob raqamiga o'tkaziladi.
- 5.2. Ishtirokchi yoki taklif etilgan Do'st tomonidan olingan mukofot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan har qanday maqsadlarda sarflanishi mumkin.
- 5.3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 369-moddasi 2-qismining 14-bandiga muvofiq olingan mukofot (pul mablag'lari) ga soliq solinmaydi.
- 5.4. Bank dasturning har bir Ishtirokchisini, shuningdek, taklif etilgan Do'stni SMS xabarnoma va/yoki ilovadagi Push-bildirishnoma orqali mukofot o'tkazilganligi haqida xabardor qiladi.

6. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Ishtirokchi yoki taklif etilgan Do'st quyidagi huquqlarga ega:
 - Dastur haqida to'liq hajmda va mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda ma'lumotlarni olish;
 - Ushbu Qoidalariga muvofiq pul mukofotini olish.
- 6.2. Dasturda ishtirok etish avtomat ravishda mazkur Qoidalar bilan Dastur Ishtirokchilar va Do'stning tanishib chiqqanini va to'liq roziligini anglatadi. Bank mijozi havola yoki promo-kodni yuborishi orqali do'stlarini taklif qilib, ushbu Qoidalariga va Dastur shartlariga rozilik bildiradi.
- 6.3. Dasturda ishtirok etish va uning Qoidalariga, shuningdek, mukofot olish uchun rozilik bildirish orqali Dastur ishtirokchisi Bankka uning ma'lumotlaridan, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar, tasvirlar va Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq boshqa ma'lumotlardan reklama, marketing va boshqa kampaniyalarda, shuningdek, Bankning axborot aloqa kanallarida foydalanishga rozilik beradi.

7. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 7.1. Bank Dasturni o'tkazishi, shuningdek, ushbu Qoidalariga muvofiq mukofotni taqdim etishi shart.
- 7.2. Ushbu Dasturning 1.4-bandiga muvofiq Dasturning amal qilish muddati davomida Bank tomonidan bekor qilinishi mumkin emas. Bank, shuningdek, ushbu Dasturning amal qilish muddatini bir tomonlama tartibda uzaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi, bu haqda Bank mijozlarni har qanday aloqa kanallari orqali xabardor qiladi.
- 7.3. Bank "Salom Visa" Debet kartasi" mahsuloti bo'yicha aksiyani Dasturning belgilangan amal qilish muddatidan oldinroq yakunlash huquqiga ega. Bunday qaror Bank tomonidan o'z xohishiga ko'ra, aksiya ishtirokchilarini oldindan xabardor qilmasdan qabul qilinishi mumkin.
- 7.4. Dasturni to'xtatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, ishtirokchilar 10 kalendar kun oldin to'xtatish haqida xabardor qilinadi. Dastur to'xtatilgan va/yoki tugatilgan taqdirda, ishtirokchilar bu haqda bankning rasmiy veb-saytida e'lon berish va/yoki ilovada Push-bildirishnoma yuborish orqali xabardor qilinadi.
- 7.5. Dastur ishtirokchilarini identifikatsiya qilish maqsadida hamda amaldagi qonun hujjatlari doirasida Dasturni o'tkazish uchun Bank so'rov asosida shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish yoxud boshqa ma'lumotlarni va hujjatlarni to'plash huquqiga ega.
- 7.6. Bank quyidagi Internet veb-saytida <https://tbcbank.uz/> hamda Bank ofislarida Dastur haqidagi qo'shimcha ma'lumotlarni chop etish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.7. Bank bir tomonlama tartibda o'yin shartlarini o'zgartirish va Dastur to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni istalgan vaqtda <https://tbcbank.uz/> veb-saytida, shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.8. Bank xavf va suiiste'mollik bo'yicha tekshirish ishlarini o'tkazganidan so'ng, Mijoz sovrinni olish uchun talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank mijozi noqonuniy, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb asosli ravishda hisoblasa, Bank Mijozga ushbu Qoidalar shartlarini bajarishini rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.9. Biroq, Bank: (a) har qanday chegirmalarni bekor qilishi; (b) Mijozning Dasturda ishtirok etishini yoki chegirmaga ega bo'lishini taqiqlashi; (c) Mijozning kelajakdagi aksiyalar va o'yinlardagi ishtirokini bloklashi; va/yoki (d) har bir holatda, agar u o'zining oqilona fikriga ko'ra, Mijozning xatti-harakatlari ushbu Qoidalariga zid deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlarini suiiste'mol qilayotganligi borasida qaror qabul qilgan bo'lsa yoki har qanday holatda uning hisobini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
 - (i) bir nechta hisob qaydlarini ochish;
 - (ii) ro'yxatga olish vaqtida noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etish;
 - (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy tarqatish vositalarining har qanday shakli orqali yolg'on/noqonuniy/ noto'g'ri ma'lumotlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
 - (iv) hisobvaraqlarning haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqini berish.

8. JAVOBGARLIK

- 8.1. Mukofotni taqdim etish bo'yicha Bankning Dastur ishtirokchisi oldidagi majburiyati Ishtirokchining joriy yoki karta hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtda bajarilgan hisoblanadi.
- 8.2. Bank mazkur Qoidalar amal qilish muddati davomida uchinchi shaxslar tomonida yuzaga kelgan tizimlardagi texnik nosozliklar, kamchiliklar, xatolar bilan bog'liq ushbu Qoidalarga muvofiq majburiyatlar bajarmaganligi uchun javobgar emas.
- 8.3. Agar 8.2-bandda ko'rsatilgan vaziyatlar yuzaga kelsa, Bank texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, kamchiliklar va nosozliklarni bartaraf etish sana va muddatini Bank mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 8.4. Mazkur Qoidalar asosida tartibga solinmagan boshqa masalalar Bankning Bosh Shartlari hamda Bank va Bankning Mijozi o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar bilan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

9. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI.

- 9.1. Ushbu Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha nizoli masalalar do'stona yo'l bilan maslahat va muzokaralar yordamida hal qilinadi.
- 9.2. Agar Tomonlar nizo va kelishmovchiliklarni 9.1-bandga muvofiq hal qilishga erisha olmasa, nizolar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq Bankning rasmiy ro'yxatdan o'tgan manzilida hal qilinadi.

10. BOSHQA SHARTLAR

- 10.1. Ushbu Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz.
- 10.2. Dastur ishtirokchilari yuqoridagi saytda (yuqorida ko'rsatilgan havolada) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda nazorat qilishlari shart.
- 10.3. Bank Mijozi TBC UZ mobil ilovasining "Mulohazalar" bo'limida bu haqda yozgan holda ushbu Dasturda ishtirok etishni rad etishga haqli.



“TBC Bank” ATB “TBC Stars” dasturining QOIDA VA SHARTLARI

1. ATAMALAR VA TA’RIFLAR

Bank	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb ataladi).
Boshqaruv	“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki Boshqaruvi
TBC Stars	TBC UZ ilovada dasturning tijorat nomi (keyingi o‘rinlarda “Dastur” deb ataladi).
Bank mijosi	Bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxs.
Missiya	Yulduzlarga ega bo‘lish uchun Bank Mijozlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bank operatsiyalari bilan bog‘liq xatti-harakatlar.
Kunning missiyasi	Bank tomonidan belgilangan maxsus cheklangan vaqtda yulduzlarni olish uchun Bank Mijozlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan bank operatsiyalari bilan bog‘liq xatti-harakatlar, shuningdek, buning uchun oddiy missiyalarga nisbatan ko‘proq yulduzlar beriladi. Kunning missiyalari Bank tomonidan Bank bilan aloqa kanallari orqali ma’lum qilinadi.
Yulduzlar	Mijoz faolligining shartli o‘lchov birligi - bu ballar bo‘lib, ular yordamida Bank Mijozlari o‘yinda o‘zaro xatti-harakatlarni bajarishi va/yoki Peshqadamlar ro‘yxatida ma’lum joylarga taqsimlanishi mumkin.
Dastur amal qilish muddati	Ushbu Qoidalar Ilovasining 1-bandida ko‘rsatilgan Dasturning amal qilish davri
Sovrinlar jamg‘armasi	G‘oliblarga taqdim etiladigan sovrinlar
Dastur Ishtirokchisi	“TBC Stars” Dasturining Qoidalarini qabul qilgan Bank mijosi.
Vaucher	Bank Mijozlari uchun chegirmalar va qulay shartlarni taklif qiluvchi Bank hamkorlarining taklifi. Takliflar ro‘yxati TBC UZ ilovasida TBC Stars bo‘limida keltirilgan.

2. UMUMIY QOIDALAR

- 2.1. “TBC Stars” dasturining mazkur Qoidalari va Shartlari (keyingi o‘rinlarda “Qoidalar” deb ataladi) Bank Mijozlarining “TBC Stars” dasturida ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Ushbu Qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-moddasi va 369-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan – www.tbcbank.uz.
- 2.3. “TBC Stars”da Dasturining har bir amal qilish muddatida sovrinlarni Bankning eng faol mijozlari o‘rtasida taqsimlash nazarda tutilgan.
- 2.4. Dasturning o‘tkazish joyi: O‘zbekiston Respublikasi hududi.
- 2.5. Dastur uning amal qilish muddati davomida amal qiladi va muddati tugaganidan so‘ng avtomat ravishda yakunlanadi.
- 2.6. Ushbu Dastur lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan o‘yin emas, unda Dastur ishtirokchilari Dasturda ishtirok etish bilan bog‘liq mulkiy xavflarga ega emaslar. Dasturni o‘tkazish jarayoni ishtirokchilar tomonidan biron-bir to‘lovni to‘lash bilan bog‘liq emas.
- 2.7. Ushbu Qoidalarni qabul qilgan holda, Bank Mijosi ushbu Dastur shartlariga rozi bo‘ladi.



3. ISHTIROKCHILAR VA DASTURDA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

- 3.1. TBC UZ mobil ilovasini o'rnatib, undan foydalanib kelayotgan Bankning identifikatsiyalangan barcha mijozi Dastur ishtirokchisi bo'lishi mumkin.
- 3.2. Dasturda ishtirok etish uchun so'rov berish talab qilinmaydi. Ushbu Qoidalar TBC UZ mobil ilovasida ro'yxatdan o'tish jarayonida Bankning identifikatsiyalangan Mijozi tomonidan qabul qilinadi va u avtomat ravishda uning ishtirokchisiga aylanadi.
- 3.3. Qoidalar kuchga kirguniga qadar ro'yxatdan o'tgan identifikatsiyalangan Bankning Mijozlari TBC UZ ilovasidan foydalanishni davom ettirish orqali ushbu Dastur ishtirokchisiga aylanadilar va bu haqida ilovada SMS va/yoki Push-xabarnoma orqali ogohlantiriladilar.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI VA SOVRINLARNI TAQSIMLASH TARTIB-TAOMILI

- 4.1. Dastur ishtirokchilari turli missiyalarni bajarish orqali yulduzlarni to'playdilar. Missiyalar ro'yxati, ularni bajarish shartlari va qo'lga kiritilgan yulduzlar uchun sovrinlar ushbu ofertaning ilovasida keltirilgan.
- 4.2. To'plagan yulduzlarni ekvivalent sovrinlarga almashtirish mumkin. Sovrinlar toifalari quyidagilardan iborat: pul mukofoti, jismoniy sovrinlar, vaucherlar va promokodlar. To'plagan yulduzlar uchun sovrinlarni almashtirish qiymati va mavjud sovrinlar ro'yxati ushbu ofertaning 1-ilovasida keltirilgan.
- 4.3. Ishtirokchi tomonidan joriy Dastur muddati uchun to'plagan yulduzlarning joriy sonini TBC UZ ilovasining asosiy ekranida, shuningdek, TBC UZ ilovasining TBC Stars bo'limida ko'rish mumkin.
- 4.4. Dastur muddati davomida to'plagan yulduzlar Dastur muddati oxirida bekor qilinmaydi.

5. SOVRINLARNI OLIISH TARTIBI VA MUDDATLARI

- 5.1. Bank har bir g'olib Ishtirokchini yulduzlar olganligi yoki Sovringa almashish fakti to'g'risida SMS-xabarnoma va/yoki mobil ilovadagi Push-xabarnoma orqali, shuningdek, Bankning boshqa aloqa kanallari orqali xabardor qiladi.
- 5.2. Mukofot puli Bank Mijozining joriy karta hisobvarag'iga va/yoki virtual karta hisobvarag'iga tegishli sovringa almashtirgandan keyingi bank kunidan kechiktirmay o'tkaziladi.
- 5.3. Mukofot pul mablag'larini Bank Mijozi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan istalgan maqsadlar uchun sarflashi mumkin.
- 5.4. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 369-moddasi, ikkinchi qism, 14-bandiga muvofiq olingan mukofot pul mablag'lar soliqqa tortilmaydi.
- 5.5. Naqd bo'lmagan sovrinlar Ishtirokchiga tegishli sovringa almashtirgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) ish kuni ichida o'tkaziladi.

6. BOSHQA SHARTLAR

- 6.1. Mazkur Qoidalar Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan - www.tbcbank.uz
- 6.2. Dastur ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan veb-saytdagi (havola orqali) tegishli o'zgarishlarni tekshirish orqali Dastur shartlarining yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart.
- 6.3. Bank Mijozi TBC UZ mobil ilovasida TBC Stars "Qoidalar" bo'limida "Dasturni tark etish" tugmasini bosish orqali ushbu dasturda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.
- 6.4. Agar Mijoz tomonidan missiyalarni bajarish vaqtida Bank shubhali tranzaksiyalar/harakatlarni aniqlasa yoki Mijoz tomonidan amaldagi qonunchilikka va Bankning har qanday shartnomalariga zid bo'lgan noqonuniy yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirishda gumon qilinayotgan bo'lsa, Bank Mijozga mukofotlarning biron-birini taqdim etish yoki topshirishdan bosh tortish huquqiga ega va/yoki bunday tranzaksiyalar/harakatlar uchun berilgan yulduzlarni bekor qilishga haqli.
- 6.5. Bankning uchinchi tomon hamkori tomonidan promokodlaridan foydalanish shartlari Bankning tegishli hamkori tomonidan xizmatlar ko'rsatish/tovarlarni sotish bo'yicha tegishli shartnomalar bilan tartibga solinadi, ular Hamkorlarning veb-saytlarida joylashtirilgan yoki savdo ofislarida mavjud.
- 6.6. Ushbu dastur doirasida yulduzlar almashinuvidan so'ng sovrinlarni qaytarish va/yoki almashtirishga yo'l qo'yilmaydi.



- 6.7. Dastur ishtirokchilari sovrinlar ro'yxati va tavsifi bilan yaqindan tanishishlari shart.
- 6.8. Haqiqiy sovrinlar ko'rsatilgan namunalardan biroz farq qilishi mumkin. Farqlar tafsilotlar, ranglar yoki boshqa elementlarni o'z ichiga olishi mumkin.
- 6.9. Mijoz to'g'ri mahsulotni tanlash va yulduzlarni almashishdan oldin dastur qoidalari bilan tanishish uchun javobgardir.
- 6.10. Agar g'olib aloqaga chiqmasa va/yoki g'oliblar belgilangan joyda yulduzlar almashilgan kundan boshlab 60 (oltmish) kun ichida kelmasa, ilgari taqdim etilgan ma'lumotlarga muvofiq yulduzlar va sovrinlar bekor qilingan deb hisoblanadi.

7. JAVOBGARLIK

- 7.1. Dastur ishtirokchilariga sovrinni to'lash yoki topshirish bo'yicha Bankning majburiyati u Mijozning hisobvarag'idan biriga kirim qilingan vaqtda yoki naqd pulsiz ko'rinishda sovrin/promokod haqiqatan topshirilgan vaqtda bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Ushbu Qoidalarining amal qilish muddati mobaynida tizimlarda ro'y bergan texnik muammolar, nosozliklar, xatolar tufayli yuzaga kelgan ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajarimaslik holatlari uchun Bank javobgar emas.
- 7.3. 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar ro'y bersa, Bank o'zining texnik tizimlarida yuzaga kelgan xatolar, nosozliklar, muammolarni bartaraf etish muddatlari va sanalarini mustaqil ravishda belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Qoidalarining shartlarini uchinchi shaxslarning qasddan va/yoki qasddan bo'lmagan xatti-harakatlari natijasida Bank tomonidan amalga oshirish imkoni bo'lmagan taqdirda, Bank javobgar bo'lmaydi.
- 7.5. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha boshqa holatlarga nisbatan Bankning Bosh shartlari hamda Bank va Bank Mijoz o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qo'llaniladi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 8.1. Mazkur Qoidalaridan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq bo'lgan barcha nizoli masalalar maslahatlar va muzokaralar yo'li bilan do'stona tartibda hal etiladi.
- 8.2. Agar Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilmagan bo'lsa, nizolar Bank ro'yxatdan o'tgan joyiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq hal qilinishi kerak.

9. MIJOZLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 9.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:
 - Bank hujjatlari bilan belgilangan hajmda va tartibda Dastur haqida ma'lumot olish;
 - ushbu Qoidalarga muvofiq mukofot olish.
- 9.2 Mijoz Dasturning ushbu Qoidalari bilan tanishishi shart. Bank Mijoz tomonidan Dasturda ishtirok etishni qabul qilish orqali avtomat tarzda Bank mijozining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqishini va to'liq roziligini nazarda tutadi.

10. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 10.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni o'tkazishi, shuningdek, sovrinlarni taqdim etish va topshirish majburiyatlarini bajarishi shart.
- 10.2. Dastur davomida Bank tomonidan Dastur bekor qilinishi mumkin emas.
- 10.3. Dastur ishtirokchilarini identifikatsiyalash maqsadida Bank ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlarini so'rovnomalar orqali to'plash yoki amaldagi qonunchilik normalari doirasida Dasturni amalga oshirish uchun boshqa ma'lumot va hujjatlarni to'plash huquqiga ega.
- 10.4. Bank Dastur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni Internet veb-saytda (<https://tbcbank.uz/>), shuningdek, Bank ofislarida e'lon qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 10.5. Bank xavflar va suiiste'mol qilish bilan bog'liq tekshiruvlarni amalga oshirganidan so'ng, Mijoz sovringa ega bo'lishni talab qilishi mumkin. Shu bilan birga, agar Bank bankning mijoz qonunga xilof, shubhali va/yoki firibgarlik xatti-harakatlarini amalga oshirayotgan deb hisoblasa, Bank ushbu qoidalar shartlarini bajarishda Mijozga rad javobini berish huquqini o'zida saqlab qoladi.

- 10.6. Shuningdek, agar Bank ongli ravishda qabul qilgan xulosasiga ko'ra Mijozning xatti-harakatlari mazkur Qoidalar va Shartlarga zid kelayotgan deb hisoblasa va/yoki Mijoz Dastur shartlaridan noqonuniy foydalanayotgan yoki biron-bir tarzda suiiste'mol qilayotgan deb hisoblasa, har bir holatda, Bank (a) istalgan Yulduzlarni bekor qilishi; (b) Mijozga Dasturda ishtirok etishni yoki sovringa da'vo qilishni taqiqlashi; (c) Mijozning keyinchalik o'tkaziladigan aksiyalarda va o'yinlarda ishtirokini bloklashi; va/yoki
- (d) Mijozning hisobga olish qaydini to'xtatib qo'yishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
- (i) bir nechta hisobga olish qaydlarni yaratish;
 - (ii) ro'yxatdan o'tish vaqtida yolg'on ma'lumotlar taqdim etish;
 - (iii) ijtimoiy tarmoqlarda, veb-saytlarda, qidiruv tizimlarida yoki ommaviy ma'lumot tarqatishning har qanday shakli orqali istalgan kodlarni ommaviy ravishda taqdim etish;
 - (iv) hisobga olish qaydining haqiqiy egasi nomidan harakat qiluvchi uchinchi shaxslarga foydalanish huquqini berish.

11. YAKUNIY SHARTLAR

- 11.1. Ushbu Qoidalar 1-Ilovada ko'rsatilgan muddatgacha amal qiladi va kuchga kiradi.



**“TBC Bank” ATB “TBC Stars” dasturining
qoida va shartlariga 1-Ilova**

1. Dastur amal qilish muddati: 2026 yil 25 fevraldan 2026 yilning 25 aprelgacha.
2. Missiyalar ro'yxati va ularni bajarganlik uchun beriladigan yulduzlar soni quyidagi jadvalda TBC UZ ilovasining TBC Stars bo'limida keltirilgan.
3. Jismoniy sovrinlar va joriy vaucherlar jadvali hamda ularning yulduzlar qiymati TBC UZ ilovasining TBC Stars bo'limida keltirilgan .